

XX ASRNING 70-80-YILLARDA SURXONDARYO VILOYATI SHAHARLARIDA UY-JOY QURILISHI VA OBODONLASHTIRISH ISHLARI (SHARG'UN VA SHO'RCHI SHAHARLARI MISOLIDA)

Tursunov Jovli Narzullayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix va falsafa kafedrası dotsenti,

tarix fanlari nomzodi

<https://orcid.org/0009-0007-2912-4887>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 70–80-yillarida Surxondaryo viloyatining oʻrta va kichik shaharlari — Boysun, Shargʻun va Shoʻrchi shaharlari misolida uy-joy qurilishi hamda obodonlashtirish ishlarining holati va rivojlanish jarayoni tahlil etilgan. Tadqiqotda sovet davrida olib borilgan uy-joy siyosati, shaharlarning demografik oʻsishi, sanoat va ijtimoiy infratuzilmaning kengayishi bilan bogʻliq muammolar ochib berilgan. Arxiv hujjatlari va statistik maʼlumotlar asosida davlat, kooperativ va yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, kommunal xoʻjalik, koʻkalamzorlashtirish, suv taʼminoti va yoʻlsozlik ishlari yoritilgan. Shuningdek, hashar anʼanalarining shaharlar obodonlashtirilishidagi oʻrni va ahamiyati koʻrsatib berilgan.

Kalit soʻzlar: Surxondaryo viloyati, Boysun shahri, Shargʻun shahri, Shoʻrchi shahri, uy-joy qurilishi, obodonlashtirish, oʻrta va kichik shaharlar, kommunal xoʻjalik, hashar anʼanalari.

Аннотация: В статье анализируется состояние и развитие жилищного строительства и благоустройства в 1970–1980-е годы в средних и малых городах Сурхандарьинской области на примере городов Бойсун, Шаргун и Шурчи. В исследовании раскрываются проблемы, связанные с жилищной политикой советского периода, демографическим ростом городов, расширением промышленной и социальной инфраструктуры. На основе архивных документов и статистических данных освещаются государственное, кооперативное и индивидуальное жилищное строительство, коммунальное хозяйство, озеленение, водоснабжение и

дорожное строительство. Также показана роль и значение традиций хашара в благоустройстве городов.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, город Бойсун, город Шаргун, город Шурчи, жилищное строительство, благоустройство, средние и малые города, коммунальное хозяйство, традиции хашара.

Abstract: This article analyzes the condition and development of housing construction and urban improvement in the 1970s–1980s in the medium and small towns of Surkhandarya region, using the examples of Boysun, Shargun, and Shurchi. The study reveals issues related to housing policy during the Soviet period, demographic growth of towns, and the expansion of industrial and social infrastructure. Based on archival documents and statistical data, the article examines state, cooperative, and individual housing construction, communal services, landscaping, water supply, and road construction. Special attention is also given to the role and significance of traditional hashar practices in urban improvement.

Keywords: Surkhandarya region, Boysun city, Shargun city, Shurchi city, housing construction, urban improvement, medium and small towns, communal services, hashar traditions.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Surxondaryo viloyati Afgʻoniston bilan chegaradosh boʻlganligi sababli shoʻrolar hokimiyati davridagi tartibga binoan bu viloyatga boshqa hududlardan aholi koʻchib kelishi maxsus ruxsatnomalar asosida mumkin edi. Shuning uchun viloyat aholisining soni tabiiy oʻsish hisobiga koʻpayadi. Bu hol, oʻz navbatida ishchi va mutaxassislarni

mahalliy aholi orasidan tayyorlash muammosini murakkablashtirsa ham aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi Surxondaryo viloyatida boshqa hududlarga nisbatan unchalik og'ir bo'lmaganligini belgilar edi.

Buni tadqiq etilayotgan hududlarda aholi sonining o'sish sur'atlari ham tasdiqlanmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Boysun va Sho'rchi rayonlarida aholining 1970-yilda 84 foizi, 1989-yilda 80,5 foizi[1] qishloqda yashaganini va bu rayonlarda Boysun Sho'rchi shaharlaridan boshqa shaharlar bo'lmaganini hisobga olganda, Boysun shahar aholisi taxminan 6,5 mingdan (1976-yilda) 16,7 minggacha, Sho'rchi shahar aholisi esa 6,3 mingdan 19 mingga o'sganini aniqlash mumkin[2].

Sharg'un shahrida 1970-yilda 6,6 ming kishi, 1989-yilda 10,7 ming kishi yashagan[2].

Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida doimiy yashayotgan aholining soni juda ham aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi, ayniqsa Sharg'unda va Sho'rchida ancha og'ir edi.

Buning sabablaridan biri shunda ediki, mazkur shaharlarga 70-80-yillarda aholi asosan yaqin atrofdagi qishloqlardan ko'chib kelgan, qishloqlardan shaharlarga qatnagan mehnatkashlar ozchilikni tashkil etgan. Yana bir sabab: Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida sanoat, qurilish, transport, shifoxonalar, maktablar, bolalar bog'chalarining, maishiy xizmat korxonalarining soni ko'paygan sari ular ishchi va mutaxassis, o'qituvchi, tarbiyachi, tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanib turilgan vaqtda bu mehnatkashlarning oilalarini uy-joylar bilan ham ta'minlash zarur edi.

Shu munosabat bilan qayd etish kerakki, o'rta va kichik shaharlarda tub millatlarga mansub qismi, aksariyat hollarda ko'p qavatli, seksiyali uydan ko'ra o'zining xususiy uyiga ega bo'lishni abzal ko'rar edi. Shuni hisobga olib, ko'pgina korxonalar ma'muriyati, kasaba uyushmalari shahar ijroiya komiteti ishtirokida ishchi va mutaxassislarga uy qurish uchun yer ajratish, qurilish materiallari bilan ta'minlashda yordam berishga harakat qilishgan.

Ayni vaqtda xo'jalik uslubida korxonalar o'z hisobidan, shakarlarning ijroiya komitetlari

mahalliy byudjetidan mablag' ajratib uy-joy qurishni ham olib borishgan, ammo u yetarli emas edi.

Buni Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlar tajribasidan ko'rish mumkin.

Boysun shahrida davlat byudjeti hisobidan uy-joy qurish asosan 70-yillarning ikkinchi yarmida boshlanib, keyingi yillarda zsa davom ettirildi. Bunga O'zbekiston hukumati 1976 yil 28 aprelda qabul qilgan "Respublikada uy-joy fondi, madaniy-maishiy za jamoat binolarining ahvolini yaxshilash choralari to'g'risida"[3] nomli qarori jiddiy omil bo'ldi. Ushbu qarorga binoan 1976-yildayoq Boysun shahrida mahalliy byudjet va korxonalarining mablag'i hisobiga 2 ta 4 xonali, 1 ta 20 xonali, 1 ta 16 xonali, jami 2118 kv.m uy-joylar qurilishi amalga oshirildi. Natijada, shaharda davlatga qarashli uy-joylar fondi bir nil mobaynida 4133 kv.m dan 6251 kv. metrgacha yetdi"[4].

Shahar maqomini olgan vaqtdan boshlab Boysun tez orada o'zining qurilish bazasiga ega bo'ldi. Bu yerda 2 mexanizatsiyalashgan ko'chma kolonnaga qarashli 113 sonli qurilish tashkilotining jamoasi katta hajmda qurilish, ta'mirlash ishlarini bajarish imkoniyatiga ega edi.

1976-1989 yillarda quruvchilar jamoasi Boysun shahrida 30 so'mlik qurilish ishlarini bajardi va shu borada 100 o'rini restoran, umumiy maydoni 9 ming kv. metrli 21 uy. 18 km yo'l va yo'lak (trotuar), savdom markazi, 2 choyxonani qurib foydalanishga topshirdi[5]. Ammo 1986-1990 yillarda 350 ming so'mlik qurilish ishlari turli sabablar bilan bajarilmay keldi[6]. 1990-yilda shu quruvchilar jamoasi 140 o'rinli bolalar bog'chasini qurdi va 2 maktabni kapital ta'mirlash umumiy maydoni 1006 kv.m tashkil etadigan 6 uy qurish ishlarini bajardi[7].

Boysun shahar kommunal xo'jaligi boshqarmasi uy-joylarni ta'mirlash, issiq va sovuq suv bilan ta'minlash borasida ancha ishlarni qildi. 70-80-yillarda davlat fondiga qarashli 8022 kv.km. uy-joy kapital ta'mirlandi[8]. Undan tashqari shaharda keng miqyosda obodonlashtirish ishlari bajarildi, jumladan maorif, madaniyat sohalarida, boshqa tashkilotlarning obyektlarida 88-yillarda 5 mln, so'mlik obodonlashtirish (vodoprovod o'tqazish, gazlashtirish, ko'klamzorlashtirish

va h.k.) hamda ta'mirlash ishlari o'tkazildi[9].

1986-1990-yillarda Boysun shahrining 6 ta katta ko'chalari rekonstruksiya qilinib, yanada ko'proq ko'kalamzorlashtirildi. Bu borada shahar ijroiya komiteti 1977 yilning fevral oyida boshlagan ko'p yillarga mo'ljallangan ishchi ancha foydali bo'ldi. O'sha vaqtda shahar ijroiya komiteti maxsus qaror qabul qilib, unda barcha korxona, tashkilot, idoralarning mablag'lari hisobiga va kuchi bilan har yili minglab mevali hamda ihota ko'chatlarini ekish rejalashtirdi. 1977-yilda shahar ko'chalarida shu tarzda 38,2 ming mevali, 59 ming mevasiz daraxtlar ko'chatlari, jumladan 52,6 ming chinor. 4 ming dona gul ekildi[10]. 1985-yilda 65 ming dona ko'chat o'tqazilgan bo'lsa[11], 1990-yilda esa shaharda 167 mingdan ortiq daraxt va gul ko'chatlari ekildi[12].

Shuningdek, obodonlashtirishda katta kamchiliklar ham bor edi. Faqat 1986-1990 yillarda rejalashtirilgan 1,7 km sul va 1,5 km trotuarga asfalt qilinmadi, 4 ta ko'cha elektrlashtirilmadi[13].

Ko'kalamzorlashtirish ishlari talabga javob bermas edi. Oqar suv bo'lmaganligi va qarovchilarning mas'uliyatsizligi hamda nazorat qilinmaganligi sababli ko'p daraxtlar qurib qolar edi. Boysun ko'chalari tor, yo'llar uzoq vaqt buzilgan holda yotardi. Gazlashtirish va kanalizatsiya o'tqazish masalasi paysalga solinardi.

Telefon stansiyasi normal ishlamasdi. Shaharda ichimlik suv katta muammo bo'lib, aholi suvni tashib ichardi.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash, xususiy uy qurish uchun yer ajratish, ko'chalarni obodonlashtirish ishlari Sharg'un shahrida ham olib borildi va natijada ko'mir qoni tufayli paydo bo'lgan bu shaharning qiyofasi-yildan yilga yaxshilanib bordi.

70-80-yillarda Sharg'un koni ko'mir ishlab chiqarishni ancha oshirishi va shaharda boshqa korxonalar, muassasalar, barpo etilishi munosabati bilan aholining soni 1,6 marta o'sdi. Bu esa, tabiiy tarzda, uy-joylarni, maktablarni, bolalar bog'chalarini, tibbiyot muassasalarini, savdo va maishiy xizmat korxonalarini qurish ishlar ko'lamini kengaytirishni hamda sur'atni oshirish talab qilgan edi.

Shuni hisobga olgan holda birinchi navbatda "Sharg'unshaxtastroy" boshqarmasi konning ishlab chiqarish uchastkalaridagi qurilish, ta'mirlash ishlarini bajarish bilan bir vaqtda ko'mirchilar oilalarini ilgari ko'rilgan barak tipidagi uylar o'rniga zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlashga harakat qildi. Ushbu qurilish tashkiloti 1973 y-yilda ko'mir koni ishchilari uchun 56 kvartirali uy qurib, foydalanishga topshirdi. Bu uy bilan birga katta magazin ham qurildi[14]. Ko'mir koni va "Sharg'unshaxtastroy" tashkiloti, 3 ta g'isht zavodi ishchi, mutaxassis va xizmatchilari xususiy uy qurish uchun 70-80-yillarda 1,5 gektar yer uchastkalar uchun ajratilgan edi[15].

Shuni qayd etish joizdirki, Sharg'un ko'mir konida, ayniqsa g'isht zavodlarida 70-80-yillar davrida mahbuslarning mehnatidan juda keng foydalanilgan. Sanoat, qurilish ishlarini bajarishga jalb etilgan mahbuslar maxsus umumiy yotoqxonalarda joylashtirilgan edi[16].

Shuning uchun Sharg'un shahrida 80-yillarning oxiriga aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi umuman o'tkir bo'lmagan.

Tadqiq etilayotgan davrda Sho'rchi shahrida ham uy-joy, ijtimoiy soha obyektlarini qurish va shaharni obodonlashtirish ishlarini bajarildi. Bu shahar, juda eski qishloq zaminida shakllanganligi va 20yillarning oxiridagi rayon markazi bo'lganligi tufayli asosan tub millatlarga mansub aholi xususiy uy-joylariga ega edi.

70-yillarning boshlarida paxta tozalash zavodi kengaytirildi, ishlab chiqarish quvvati ancha oshdi, asfalt-beton zavodi qurildi hamda don va un mahsulotlari kombinatining qurilishi avj oldi.

Bu va boshqa bir qator sanoat, qurilish, transport korxonalariga Sho'rchi atrofidagi qishloqlardan mehnat qilish uchun yuzlab yoshlar kela boshlashdi. Undan tashqari yangi korxonalarda ishlashga O'zbekistonning boshqa shaharlaridan mutaxassislar taklif etildi.

Shu sababli Sho'rchida aholini uy-joy, bog'chalar, maishiy xizmat, madaniyat muassasalari bilan ta'minlash muammosi asta-sekin murakkablashdi. Shuni hisobga olib, Sho'rchi rayon va shahar soveti, kasaba, xo'jalik organlari 70-yillarda uy-joy qurish, obodonlashtirish ishlari ko'lamini

kengaytirishga ilgari ancha faolroq kirishishdi.

1971-1975 yillarda paxta tozalash asfalt-beton zavodlarining ma'muriyati shahar ijroiya komiteti yordamida jami 14 kishi ikki va turt qavatli uylarni xo'jalik uslubida qurib, 52 ishchi va xizmatchi, mutaxassislarning oilalari ixtiyoriga topshirdi[17].

Shu tufayli shahar kommunal xo'jaligi tasarrufida 1976-yilda umumiy maydoni 10635 kv. metrni tashkil etadigan 87 uy bo'lgan va ularda 1462 kishi yashagan[18].

Uylarni joriy va kapital ta'mirlashga har yili o'rtacha hisobda 45-50 ming so'm shahar byudjetidan va 21-23 ming korxonalar hisobidan sarflandi[19]. Bu ishlar natijasida aholi bir qismining turmush sharoiti birmuncha yaxshilandi.

Kapital qurilishni avj oldirish, jumladan uy-joy va ijtimoiy madaniy obyektlarni qurish sur'atlarini oshirish maqsadida Sho'rchi shahar sovetining XV chaqiriq sessiyasi (1977 y. 25 fevral) "Aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va moddiy-madaniy farovon ligini oshirish to'g'risida" degan qarorni qabul qildi[20].

Shu qarorda 1977-1985 yillarda Sho'rchi shahrida amalga oshirilgan kapital qurilish rejalari, ijtimoiy-madaniy sohaning rivojlanish ko'rsatkichlari belgilangan edi.

80-yillarning boshlarigacha qurilish tashkilotlarining kuchi bilan umumiy maydoni 2180 kv. metrni tashkil etadigan uylar qurildi va bunga 5 mln. 100 ming so'mdan ortiq sarflandi[21]. Undan tashqari yangi qurilayotgan don va un mahsulotlari kombinatining mehnatkashlari uchun 2-3 qavatli 4 ta uy (jami 52 kvartira) xo'jalik uslubida qurilib, 1980-yilda foydalanishga topshirildi[22].

Yangi sharoitlarni, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda shahar Sovetining XVI chaqiriq IV sessiyasi 1981-yilda 900 kv.m. uy-joy qurishni mo'ljalladi[23]. Bu reja ancha ortig'i bilan bajarildi. Shaharning mahalliy byudjeti va korxonalar, tashkilotlar hisobidan 7 ta qurilish tashkiloti 1981-1985 yillarda uy-joylarni qurish, ta'mirlash, yo'llarni asfaltlashtirish, ijtimoiy madaniy obyektlarni qurish ishlariga deyarli 7,80 mln. so'm sarflashdi[24].

Davlat fondiga qarashli uylar bilan bir qatorda 7 ko'p kvartirali kooperativ uylar qurildi. Shu ishlarni amalga oshirish natijasida 1981-1985 yillarda Sho'rchi shahrining uy-joy fondi 21,1 ming kv.m.ga oshdi[25].

Sovet hukumati 1981 yil martda shaharlar ijtimoiy rivojlanish muammolarini hal etish chora-tadbirlarini ishlab chiqdi va "aholining uy-joy sharoitlarini yanada yaxshilashda uy-joy qurilishi kooperatsiyasining rolini oshirilishi, xususan kichik shaharlarda, shahar tipidagi posyolkalarda va qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy binolarini qurish imkoniyatlarini kengaytirilishi, birlashmalar va korxonalar rag'batlantirish fondlari hisobidan kooperativ va yakka uy-joy qurilishida mehnatkashlarga yordam berilishi zarur" — deb uqtirdi[26].

Xuddi shunday vazifa SSSR Oliy Kengash Prezidiumining 1982 yil 7 sentyabrda Turkmanistonda uy-joy qurilishini va qishloq aholisiga kommunal xizmat ko'rsatishni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan qarorida ham ta'kidlangan[27].

Ayni shu qarorlar va masalalar bo'yicha O'zbekiston hukumati ham tegishli qarorlar qabul qilgan edi. Shu qarorlar asosida boshqa joylardek Sho'rchi shahrining sovet va xo'jalik organlari birinchi navbatda qurilish bazasini va kommunal xo'jalikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga harakat qilishdi.

Bu borada quruvchi kadrlarning qo'nimsizligini bartaraf qilish maqsadida mexanizatsiyalashgan ko'chma kolonnasi joylashgan posyolkada 1984-1987 yillarda 4 kvartirali 12 kottejlar qurilganini qayd etish lozim[28].

80-yillarning ikkinchi yarmida Sho'rchi shahridagi korxonalar O'zlarining mablag'lari hisobiga va ishchilariga uzoq muddatli kredit berish yo'li bilan uy-joy qurish muammolarini hal qilish borasida birmuncha muvaffaqiyatlarga erishishdi. Masalan, don va un mahsulotlari kombinati pudratchi qurilish tashkilotining kuchi bilan va xo'jalik uslubida boshqa ijtimoiy-maishiy obyektlar bilan birga 1987-1990 yillarda 176 kvartirali bir nechta uylarni qurishga muvaffaq bo'ldi[29].

Paxta tozalash, asfalt-beton zavodlari, tikuv fabrikasi, tibbiyot, madaniyat va xalq maorifi

muassasalari mehnatkashlarini uy-joy bilan ta'minlab, ularning sharoitlarini yaxshilashga intildilar.

Sho'rchi shahrida 70-80-yillarda obodonlashtirish masalalariga ko'p e'tibor berilgan. 70-yillarning boshida bu shaharda mavjud 74 katta va kichik ko'chalardan faqat 9 tasi asfaltlangan edi hamda aksariyati tartibli ravishda ko'kalamzorlashtirilmagan edi. Xususiy uy-joylarning ko'pida vodoprovod bo'lmaganligi sababli aholining katta qismi ko'chalardagi kichik ariq oqar suvlaridan foydalanishga majbur edi[30].

Bu va boshqa kamchiliklarni bartaraf etish hamda shaharda obodonlashtirish ishlarini avj oldirish uchun mahalliy byudjet va korxonalar, tashkilotlar hisobidan mablag'larni ko'paytirish mo'ljallandi.

Masalan, SSSR 50 yilligi munosabati bilan 1972-yilda shaharni obodonlashtirishga 1970-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 800 ming so'mga ko'proq xarajat qilindi[31]. Keyingi yubileylarga (O'zbekiston SSRning 50 yilligi, 1941-1945 yillardagi urushda qozonilgan G'alabani 40 yilligi va 45 yilliklari) tayyorgarlik borasida obodonlashtirish ishlariga 2 mln, so'mdan ortiqroq mablag' sarflandi[32]. Shu ishlarni bajarish natijasida Sho'rchida 22 gektarni egallagan istirohat bog'i barpo etildi[33], 28 ko'cha va shaharga qarashli 4 posyolka obodonlashtirildi (ko'chalari asfaltlandi, ko'kalamzorlashtirildi, ayrim eski ko'chalarga shag'al yotqizildi va h.k.), shahardan o'tadigan uchta kanal hashar uslubida tozalandi, qirg'oqlariga 40 ming tup manzarali daraxt va gul ko'chatlari ekildi. Sh Bu ishlarni bajarishda paxta tozalash zavodining, "O'zselxoztexnika" rayon birlashmasining 1 va 3-o'rta ta'lim maktablarining, mexanizatsiyalashgan ko'chma kolonnaning jamoalari hamda A.Navoiy nomli, S.Rahimov nomli, "Bo'ston" mahallalarining aholisi faol qatnashdi"[34].

Sho'rolar hokimiyati davridagi u yoki bu voqealarga, an'analarga hozirgi mavqedan yondashilganda, ortiqcha tanqidiy va o'ta salbiy baho berish hollari ham bo'lmoqda.

Darhaqiqat, u davrda har qancha tanqid qilinadigan voqealar, faktlar bo'lgan. Ayni vaqtda rasmiy siyosatda, xalqning hayotida ijobiy tomonlari ham oz emas edi.

Shulardan biri mafkuralashgan bo'lsa ham, turli shakllarni kasb etsa ham, an'anaviy hasharlar edi. Bu xodimdan hayotiyiligini isbotlagan an'ana O'zbekistonda juda ko'p va yirik inshootlarni barpo etishda hal qiluvchi omil bo'lgani ma'lum.

Aholini mehnatkashlarning eng yaxshi fazilatlarini namoyon etuvchi an'anaviy hasharlar respublikamizda muntazam ravishda o'tqazilib turilgan.

Tadqiq etilayotgan davrda Surxondaryo viloyatida, jumladan Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida hasharlar an'anaviy shaklda ham, shanbalik, yakshanbalik shakllarda ham o'tqazilib, ko'p foydali ishlarni bajarish imkoniyatini berdi. Shahar va qishloqlarda ommaviy obodonlashtirish ishlari asosan hashar uslubida bajarilgan.

70-80-yillarda har bir qizil sana munosabati bilan 5-10 shanbalik, yakshanbaliklar tashkil etilib, faqatgina obodonlashtirishga bag'ishlangan bo'lib qolmasdan, bevosita ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan ham bog'liq edi.

Lekin o'rta va kichik shaharlar sharoitida hasharlar yordamida ko'pincha aynan obodonlashtirish ishlari bajarilgan.

Sho'rchida umumshahar hasharlarda qatnashchilar soni yildan-yilga o'sib bordi. Masalan, 1970-yilda ularning soni 4 mingdan ortmagan bo'lsa[35], 1980-yilda 7 mingni tashkil etdi, 1989-yilda 9 mingdan oshdi[36].

Ammo hasharchilar keltirgan foyda besh yilliklar va boshqa fondlariga o'tqazilib, shahar yoki korxona, tashkilotlar hisobiga tushgan emas. Umuman hasharlardan ortiqcha foydalanish hollari bo'lgan. Shunday bo'lsa ham hasharchilar shahar, qishloq, korxona, tashkilotlarga ancha mablag'larni tejashga imkon berishdi.

Masalan, Sho'rchi shahrida 70-yillarda har bir shanbalik yoki yakshanbalik shaklda o'tqazilgan hasharda 100 ming so'mdan ortiqroq baholangan ish bajarilgan[37]. 80-yillarda esa hasharchilarning faolligi ancha susaydi, hasharchilarni tashkil etish darajasi ham pasaydi. Lekin shunda ham ular juda ko'p ish bajarishdi. Bu yillarda shahar ko'chalari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar hududida 700 mingdan ko'proq daraxt ko'chatlari ekildi, 29 ko'cha asfaltlandi, 8 km trotuarlar

qilindi[38].

Obodonlashtirishda ancha ish qilinganiga qaramay ba'zi kamchilik va nuqsonlar ham bor edi. Masalan, 1988-1990 yillarda 1,3 km masofa asfaltlanmadi, ba'zi ko'chalarga asfalt yoyilmadi, yangi tashkil etilgan 3 ta ko'cha elektrlashtirilmadi, 3 ta ko'chaning chetiga beton ariqlar qazilmadi[39].

Shunday qilib tadqiqot natijasidan Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarda 70-80-yillarda uy-joy qurish hamda obodonlashtirishlarini tashkil etish, amalga oshirish tajribasida jiddiy nuqsonlar va muammolar aks etilgani aniqlandi.

Ushbu nuqsonlar orasida eng avvalambor, yakka partiyaviy siyosatda aholining ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olish va qondirish iqtisodiy va harbiy mudofaa maqsadlaridan keyingi, uchinchi darajali vazifa deb sanalganidir. Ijtimoiy sohaga nisbatan "qoldiq" tamoyilini qo'llash ayni 70-yillarda kuchayganligi qishloq va o'rta, kichik shaharlar hayotida sezildi.

Masalan, paxta maydonining tobora kengaytirilishi, qishloq joylarda qayta ishlash, maishiy xizmat korxonalari barpo etilmagani oqibatida qishloq aholisining tomorqadan olayotgan daromadi qisqardi, qishloqda ish joylari bilan ta'minlanmaganlar salmog'i ortib bordi va ular yaqindagi o'rta, kichik shaharlarda sanoat, qurilish, transport hamda boshqa korxonalarda ishga kirishga majbur bo'lib, aksariyati shaharda istiqomat qilish uchun qolgan edi.

Bu esa, albatta, o'rta va kichik shaharlarda nafaqat uy-joy masalasini, balki ko'pgina boshqa ijtimoiy muammolarni murakkablashish omili bo'ldi. Sababi esa shunda ediki, shahar va qishloqlardagi ijtimoiy, demografik jarayonlarning asosiy yo'nalishlari,

xususiyatlari, xo'jalik organlar tomonidan o'z vaqtida o'rganilmadi va amaliy siyosatda aks ettirilmadi.

Shuning uchun shaharlarda uy-joy, ijtimoiy obyektlarni qurish har safar vaziyat taqozosi bilan avj oldirilar edi, biroq biror yilda kompleks tarzda amalga oshirilmagan. Yana shuni ham qayd etish lozimki, har bir rayon markazida, o'rta va kichik shaharda partiya, sovet organlari uchun hashamatli, qimmatbaho binolarni qurishga mablag' doimo toyilib, aholi yashayotgan joylarni obodonlashtirish, eng zarur sharoitlar bilan ta'minlash ko'pincha tekin yoki arzonroq uslubi bilan amalga oshirilgan. Bunday uslub asosan hashar edi.

Shaharlarda uy-joy, ijtimoiy sohaning obyektlarini qurish, obodonlashtirish ishlarini bajarishda har qancha kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-da 70-80-yillar bu borada barcha shaharlarda, jumladan Boysunda, Sharg'unda va Sho'rchida bu borada ijtimoiy ahamiyatga molik ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganini ham tan olmoq lozim. Masalan, 1985-yilga nisbatan 1989-yilga kelib davlatga qarashli uy-joy fondi Boysunda 26,1 ming kv.m.dan 56,4 ming kv.m.ga, Sharg'unda 88,8 ming kv.m.dan 113 ming kv.m.gacha, Sho'rchida 90 ming kv.m.dan 118,2 ming kv.m.gacha oshdi[40].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida uy-joy qurish va obodonlashtirish sohasida ayrim ijobiy ko'rsatkichlarga erishilib, tajriba orttirilgan bo'lsa ham, aholining ehtiyojlari qondirilgan emas edi. Ayniqsa Surxondaryoning issiq sharoiti talabiga javob beradigan uy-joylarning kam bo'lishi, aholini suv bilan ta'minlashdagi nuqsonlar ko'zga yaqqol tashlanib turar edi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Итоги Всесоюзной переписи населения 1989 г. Часть I. — с. 13.
2. Народное хозяйство Сурхандарьинской области за годь двенадцатой пятилетки (1986-1990 гг.), — с. 41.
3. Denov tumani davlat arxivi. 80-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 3-4 varaqlar.
4. Denov tumani davlat arxivi. 80-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 7-varaq.
5. Denov tumani davlat arxivi. 80-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 19-21 varaqlar.
6. Boysun tumani davlat arxivi. 34-ish, 215-buyruq, 444-varaq.
7. Boysun tumani davlat arxivi. 34-ish, 215-buyruq, 24-varaq.

8. Boysun tumani davlat arxivi. 34-ish, 215-buyruq, 27-varaq.
9. Boysun tumani davlat arxivi. 34-ish, 215-buyruq, 44-varaq.
10. Boysun tumani davlat arxivi. 34-ish, 215-buyruq, 3,71-varaqLAR.
11. "G'alaba" gazetasi, 1989-yil, 18-dekabr.
12. Boysun shahar Sovetining VI chaqiriq XI sessiyasi materiallari, 1990-yil, 17-noyabr.
13. Boysun tumani davlat arxivi. 34-ish, 215-buyruq, 44-varaq.
14. O'z MA. 2113-fond, 28-ro'yxat, 2213-ish, 6-varaq.
15. Sho'rchi tumani davlat arxivi.. 4-ish, 19-20- varaqlar.
16. Sho'rchi tumani davlat arxivi.. 4-ish, 19-20- varaqlar.
17. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 57-ish, 18-varaq.
18. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 57-ish, 22-varaq.
19. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 34-varaq.
20. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 57-ish, 41-varaq.
21. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 21,39-varaqlar.
22. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 50-ish, 12-varaq.
23. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 50-ish, 44,79-varaqlar.
24. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 50-ish, 38-varaq.
25. "Kommunizm g'alabasi" gazetasi, 1986-yil, 3-yanvar.
26. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам (апрель 1979 г. — март 1981 г.) Т.,13, -М.: Политиздат, 1981 -с. 722; "Известия" газетаси, 1981 и., 28 март.
27. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. (апрель 1981 г.- декабрь 1982 г). Т.14- М.: Политиздат, 1983. -с. 557-558.
28. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 59-ish, 16-varaq.
29. "Kommunizm g'alabasi" gazetasi, 1990-yil, 27-dekabr
30. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 57-ish, 46-varaq.
31. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 57-ish, 14-varaq.
32. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 64-ish, 17-varaq.
33. "Kommunizm g'alabasi" gazetasi, 1986-yil, 1-fevral.
34. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 78-ish, 9-10 varaqlar.
35. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 60-ish, 16-varaq.
36. Kommunizm g'alabasi. 1990-yil 17-fevral.
37. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 60-ish, 19-varaq.
38. Sho'rchi tumani davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 60-ish, 27, 61-varaqlar.
39. Sho'rchi shahar xalq deputatlari Kengashining arxivi. Kengash 4-protokoli, 1990-yil, 25-dekabr, 2-bet.
40. Народное хозяйство Сурхандарьинской области за годь двенатцатой пятилетки (1986-1990 гг.), — с. 39.